

## MARKAZIY BANK PUL-KREDIT SIYOSATINING TO'LOV BALANSIGA TA'SIRI

Achilov Ortiqjon Rustam o'g'li  
Bank moliya Akademiyasi magistranti

### Annotatsiya:

Pul-kredit siyosati makroiqtisodiy barqarorlik va uning rivojlanishini ta'minlashda o'z o'rniga egadir. To'lov balansi iqtisodiyotdagi muhim tushunchalar bo'lib, mamlakatning butun dunyo bilan iqtisodiy operatsiyalarini o'lchaydi. U tovarlar, xizmatlar, daromadlar va moliyaviy aktivlar almashinuvini o'z ichiga olgan barcha xalqaro operatsiyalarning keng qamrovli yozuvi bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** davlat moliyasi, pul-kredit siyosati, to'lov balansi, eksport, import, aktivlar.

### Аннотация:

Денежно-кредитная политика занимает свое место в обеспечении макроэкономической стабильности и ее развития. Платежный баланс является важным понятием в экономике и измеряет экономические операции страны со всем миром. Она служит всеобъемлющей записью всех международных операций, включая обмен товарами, услугами, доходами и финансовыми активами.

**Ключевые слова:** государственные финансы, денежно-кредитная политика, платежный баланс, экспорт, импорт, активы.

Davlat moliyasi va barqarorligini ta'minlashda pul-kredit siyosatining o'rnini va ahamiyati haqida ko'pgina iqtisodchi olimlar turfa muzokaralar olib borganlar. Mazkur masala yuzasidan turli millat vakillari ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirganlar, maqolalar va monografiyalarni chop ettirganlar. Biroq Shunday bo'lsa-da bugungi kunda ham ushbu mavzu yana bir qator iqtisodchi va amaliyotchilar tomonidan keng muhokamaga sabab bo'lmoqda va muhokamaning markazida turib



kelmoqda. Davlat barqarorligini ta'minlashda pul-kredit siyosatining ahamiyati xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida ham o'z aksini topgan.

Aynan mana shu o'rinda Markaziy bank asosiy obrazni qo'lga oladi, ya'ni valyuta kursining shakllanish jarayonida butunlay o'zgacha bo'lgan uslubdan foydalanmoqlik hamda o'z navbatida, Markaziy bankning asosiy diqqat-e'tiborini ichki bozordagi narxlar barqarorligiga qaratish joiz hisoblanadi. Buning asnosida esa pul-kredit siyosatini yanada taraqqiy ettirish imkoniyatini paydo qiladi. Bugungi kunda jamiyatning iqtisodiy jihatdan yuksalib borayotganligi valyuta bozorini liberallashtirish borasidagi islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ko'pgina jihatdan pul-kredit siyosatini yuksaltirish, tijorat banklari faoliyatini yanada mustahkam qilish va albatta, bank tizimini ham rivojlantirish sohasidagi choralarning naqadar samaradorli ekanligiga chambarchas bog'liqdir. Yuqorida ta'kidlanganlardan kelib chiqib, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bir necha qaror va farmonga buyruq berdilar. Xususan, «Valyuta bozorini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonlarining e'lon qilinganiga u qadar ko'p vaqt bo'lmay, davlatimiz rahbarining «Pul-kredit siyosatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari qavul qilindi. Hamda pul-kredit siyosatini 2017-2021- yillar davomida rivojlantirish va inflatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha ham chora-tadbirlar Kompleksi o'z tasdig'iga ega bo'ldi.

To'lov balansi– ma'lum bir vaqt mobaynida (chorak, yarim yil, bir yil va h.k.) bir mamlakat va unda ro'yxatdan o'tgan korxonalar, jismoniy shaxslar va davlat idoralarining boshqa mamlakatlardagi korxonalar, jismoniy shaxslar va davlat idoralari bilan amalga oshirgan barcha iqtisodiy operatsiyalarini o'zida aks ettiruvchi statistik hisobotdir. Masalan, tovar va xizmatlarni eksport yoki import qilish, boshqa bir davlatga kredit berish yoki jalb etish, kredit bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish, xalqaro pul o'tkazmalari, qimmatli qog'ozlar bo'yicha xalqaro savdolar va boshqalar shular jumlasidandir. Ushbu hisobot mamlakat tashqi iqtisodiy holatini tahlil qilish va unga oid pul-kredit, valyuta siyosati kabi makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirish uchun muhim statistik asos vazifasini o'taydi.



Xalqaro valyuta jamg'armasining tasnifiga binoan, to'lov balansi joriy operatsiyalar hisobi, kapital bilan bog'liq operatsiyalar hisobi, moliyaviy operatsiyalar hisobi hamda sof xatolar va yo'qotishlar kabi tarkibiy qismlardan iborat.

Tovarlar va xizmatlar eksporti va importi, bir mamlakatning xorijda ishlovchi hamda o'sha davlatda ishlovchi chet ellik ishchilarning daromadlari va xarajatlari, bir mamlakatning tashqi aktivlari va majburiyatlari bo'yicha qo'lga kiritgan yoki to'lab berishi lozim bo'lgan daromadlari, shuningdek, xalqaro pul o'tkazmalari, grantlar va insonparvarlik yordamlari va boshqa operatsiyalar to'lov balansining joriy operatsiyalar hisobida aks etadi.

Bundan tashqari, bir mamlakatdagi korxonaning boshqa bir mamlakat korxonasiga katta miqdorda bag'araz moliyaviy resurs taqdim etishi yoki ixtiyoriy ravishda qarzidan voz kechishi kabi kapital transfertlari hamda yer, tabiiy resurslar, shartnomalar, marketing ishlanmalari kabi ishlab chiqarilmagan nomoliyaviy aktivlar savdolari to'lov balansining kapital bilan bog'liq operatsiyalar hisobida jamlanadi.

Shuningdek, mamlakatlar o'rtasidagi aktivlar va majburiyatlar bilan bog'liq operatsiyalar to'lov balansining moliyaviy operatsiyalar hisobida yuritiladi. Moliyaviy hisob to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar, portfel investitsiyalar, moliyaviy derivativlar (svop, opsion va h.k.), boshqa investitsiyalar (valyuta va depozitlar, savdo kreditlari hamda avanslari va boshqalar) va rezerv aktivlaridan iborat.

Nazariy jihatdan, joriy hamda kapital bilan bog'liq operatsiyalar hisoblari saldosi yig'indisi moliyaviy hisobning saldosi teng bo'lishi lozim. Ammo, amaliyotda hisobot shakllanishida foydalaniladigan ma'lumotlar turli manbalardan olinishi, aktiv va majburiyatlar qiymatining o'zgarishi va boshqa o'zgarishlar to'lov balansi qismlarining nomutanosibligiga olib keladi. Ushbu nomutanosibliklar to'lov balansida sof xatolar va yo'qotishlar sifatida ko'rsatiladi.

Markaziy bank taqdim etgan "O'zbekiston Respublikasi to'lov balansi, xalqaro investitsion pozitsiyasi va tashqi qarzi" nashriga ko'ra, 2019 yilning 9 oyi yakunlari bo'yicha joriy operatsiyalar hisobining defitsiti o'tgan yilning mos davriga nisbatan deyarli ikki martaga qisqargan bo'lib, 1,4 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. Defitsitning qisqarishi eksportning o'sish sur'atlari importnikiga nisbatan yuqoriroq bo'lgani bilan izohlanadi. Joriy operatsiyalar hamda kapital bilan bog'liq operatsiyalar hisoblaridagi defitsitlar moliyaviy operatsiyalar hisobi evaziga



moliyalashtiriladi. Masalan, joriy operatsiyalar hisobi defitsitining asosiy manbalaridan biri bo'lgan savdo balansi defitsiti (import hajmining eksport hajmidan ortiqligi) asosan moliyaviy operatsiyalar hisobidagi investitsiyalar va qarzlar evaziga qoplanadi.

O'zbekiston misolida ko'radigan bo'lsak, Markaziy bank ma'lumotiga ko'ra, 2019 yilning 9 oyi davomida amalga oshirilgan tovarlar importning katta qismini (32%) mashinalar, uskunalar hamda mexanizmlar tashkil qilmoqda. Ushbu mahsulotlar uchun to'lovlar asosan moliyaviy hisobdagi jalb qilinayotgan investitsiyalar hamda tashqi qarzlar evaziga moliyalashtirildi.

Jahon tajribasida to'lov balansi hisoboti asosan Markaziy bank yoki Statistika qo'mitasi (Statistik idora) tomonidan shakllantiriladi va har chorakda foydalanuvchilarga taqdim qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2018-yildan boshlab to'lov balansi bo'yicha statistik hisobotni Xalqaro valyuta fondining To'lov balansi va xalqaro investitsion pozitsiya bo'yicha qo'llanmasining oltinchi nashriga asosan shakllantiradi va Kengaytirilgan ma'lumotlarni tarqatishning umumiy tizimida o'rnatilgan muddatlarda tahliliy ko'rinishdagi nashr bilan birgalikda jamoatchilik uchun taqdim qiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning markaziy banklari tajribalari hamda xalqaro moliya institutlari izlanishlari natijalari pul-kredit siyosatini amalga oshirishda narxlar barqarorligini ta'minlash maqsadining shak-shubhasiz ustuvorligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, pul-kredit siyosatini amalga oshirish tartibi va ketma-ketligi turli mamlakatlarda iqtisodiyotning xususiyatlari hamda tarkibiy tuzilishiga qarab farqlanadi. Amaldagi O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi Qonuniga ko'ra, Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valyuta barqarorligiga zamin yaratish hisoblanadi. Bunda «milliy valyuta barqarorligi» tushunchasini ikki xil, ya'ni almashuv kursining chet el valyutalariga nisbatan barqarorligi yoxud uning ichki xarid qobiliyati barqarorligi deya talqin qilish mumkin. \* Almashuv kursining erkin shakllanishi sharoitida milliy valyutaning barqarorligi uning ichki harid qobiliyatini saqlash orqali erishiladi. Bunda, erkin suzib yuruvchi almashuv kursi iqtisodiyotni ichki barqarorlashtiruvchi funksiyasini bajaradi. Boshqacha qilib aytganda, to'lov balansi bilan bog'liq tashqi shok va



qiyinchiliklar kuzatilganda almashuv kursining mos ravishda o'zgarishi ekportyorlar va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Ayni paytda Markaziy bank pul-kredit siyosatining asosiy maqsadini ikki xil tushunilishini oldini olish va uning faoliyati asosiy yo'nalishini aniq belgilab olish maqsadida qonunchilikka tegishli o'zgartirishlar kiritilishi ko'zda tutilgan.

### **Adabiyotlar**

1. A.V.Vahobov., T.S.Malikov.Moliya. «NOSHIR». Toshkent-2012. 636.
2. Mirazizov A., Radjabova I., Rasulov N., Faizulloyev M., Mamatkulov A., Davlatzoda D., Azimov H., Dzuhrayev G., Ahmadov B./ The effektivnenes of financial and monetary instruments of sustainable devolopement in Tadjikistan'S./ Economy and ways of improving them./ Journal of internet Banking &Commerce.2016. Vol.21 Issue 3, p1-13./ 13p.
3. Habibullayev.A. To'lov balansi, uning tuzilishi va taqchilligi. Yangi O'zbekiston talabalar axborotnomasi. [www.in-academy.uz](http://www.in-academy.uz).1-son.7-jild.2023-yil.
4. Aminov J, Valyutani tartibga solish va to'lov balansi departamenti.Yetakchi iqtisodchisi. [https://cbu.uz/uz/press\\_center/expert-explanation/133969/](https://cbu.uz/uz/press_center/expert-explanation/133969/)
5. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Davlat\\_moliyasi/](https://uz.wikipedia.org/wiki/Davlat_moliyasi/)
6. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Pul-kredit\\_siyosati/](https://uz.wikipedia.org/wiki/Pul-kredit_siyosati/).

